

EHTIROM ASARIDA ABDULLA QAHHOR OBRAZI***Tashpulatov Shukurullo****Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-bosqich talabasi**Ilmiy rahbar: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,**tarix fanlari doktori (DSc) **Oybek Rashidov*****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Nuriddin Ochilovning buyuk adib Abdulla Qahhor hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Ehtirom" nomli asaridagi muhim tarbiyaviy-ma'naviy ahamiyatga ega va diqqatga sazovor masalalar tahlil qilingan. Adibning yashab o'tgan umri yoshlar uchun ibrat ekanligiga urg'u berib, uning o'ziga xos ijodi va shaxsiyati, undagi hozirgi yosh avlodga o'rnak bo'ladigan xislatlari alohida ta'kidlab o'tilgan. Maqolada Abdulla Qahhor asarlaridagi madaniyat va ma'rifat hamda bilim-tarbiya berishda yuksak o'rinda turadigan saboqlar haqida ham alohida so'z yuritilgan.

KIRISH

Hozirgi kunda yosh avlodga san'at, madaniyatni keng targ'ibot etish juda muhim masalalardan biri bo'lmoqda. Xususan adabiyotning o'rni shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonda beqiyosdir. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilayotgan turli kitobxonlik tanlovlari va tadbirlari bejizga emas. "5 tashabbus"dagi birinchi va to'rtinchi tashabbus ham bugungi kundagi yanada yuksaltirilishi va kengaytirilishi kerak bo'lgan sohalardan biriki, mazkur yirik loyiha ichida alohida joy egallagan. Dunyo rivojlangani sari nafaqat ilmiy bilimlarga ega bo'lish balki ma'nan etuk bo'lish ham har bir inson uchun muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ilmiy bilimlar bizni o'z sohamizda mutaxassis qilsa, ma'naviyat va adabiyot bizni ijtimoiy jihatdan rivojlantirib, o'z sohamizda yangi marralarni, yangi cho'qqilarni egallashimizga asos bo'ladi.

Adabiyot xalqning yuragi, millatning aksidir. Usiz millat o'zligini unutadi. Milliy o'zbek adabiyotimiz ham o'ziga xos, xalqona uslubi bilan jahon adabiyotida betakror ijodkorlari bilan alohida o'rin egallaydi. O'zbek adabiyotida e'tirof etishga arzigulik bir qancha yorqin namoyondalar mavjud. Ular orasidagi chinakam, mehnatkash, tirishqoq va shijoatli adabiyotning o'chmas namoyondalaridan biri, go'zal ijodkor Abdulla Qahhor ham alohida tengsiz o'ringa ega. U yaratgan asarlarda olam-olam ma'no yashirin. U o'z asarlariga kiritgan dolzarb masalalar hali hamon o'z kuchini yo'qotmaganki, adabiyot shinavandalari uning asarlarini hali hanuz sevib o'qiydilar. Alohida ta'kidlash kerakki, adibning buyukligi uning so'zga bo'lgan mohirona munosabatida. U so'zlarni saralab-saralab ishlatadi va shu bilan birga ma'no va mohiyatni ham yo'qotib qo'ymay, ta'sirchan ruhiyatni o'quvchiga to'la-to'kis

etakazadi. Bu esa har bir kitobxon e'tiborini tortibgina qolmay, ma'naviyatini shakllantirishda, dunyoqarashini kengaytirishda, shaxs sifatida sayqallanishida katta zamin yaratadi.

ASOSIY QISM

Nuriddin Ochilovning "Ehtirom" nomli asari ham aynan adabiyotimizning zabardast vakillaridan biri, kuchli ijodkor, talabchan va shu o'rinda juda mehribon, yuragida o'ti bor, sof vijdonli ijodkor buyuk Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi haqida. Asarni o'qish davomida nafaqat Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi bilan balki uning hammani lol qoldirgan o'zgacha shaxsiyati bilan ham tanishish mumkin. Bundan tashqari asarda o'tmishda ham, bugun ham, kelajakda ham o'ta dolzarb mavzularga o'ta go'zal va haqqoniy-tanqidiy, tarzda qo'l urilgan. Abdulla Qahhor hayoti va ijodini o'rganish mobaynida shunday xalqimizning ham butun insoniyatning ham bir qancha ma'naviy va tarbiyaviy muammolari, ushbu muammolarga oydin nazar va tanqid hamda asosli echim va takliflar mahorat bilan yozilganki, hech qaysi bir kitobxon ushbu mavzularga befarq holda kitobni varaqlashda davom eta olmaydi. Aksincha, qayta-qayta o'qishga, har bir sahifadan ma'no izlashga va chuqur uqishga intiladi. Negaki, shu o'rinda asarning o'zi ham shuni talab etadi va shunisi bilan ham mazkur asar, o'quvchiga kuchli ma'naviy ozuqa berib, qalbidan alohida joy egallaydi.

Asarning boshida buyuk yozuvchi haqidagi turfa xil she'rlar va kirish so'zlari, qisqa ammo mazmunan baquvvat matnlar yozilgan. Kitob muallifi o'quvchiga buyuk adibni tanishtirishni uning uy muzeyiga tashrifidan boshlaydi. U o'zining adib xonadoniga tashrifini shunday o'tkir tasvirlaydiki, asarni mutolaa qilayotgan inson xuddi qisqa metrajli film tomosha qilgandek bo'ladi.. Va aynan asar boshidanoq asarga bo'lgan ishtiyoq jo'sha boshlaydi. Yozuvchi sizni adibning hayoti va ijodi yo'llariga shunday olib kirib qo'yadiki, go'yoki siz shunchaki kitob o'qib emas balki asar ichida "sayohat" qilayotgandek bo'lasiz. Shu bilan birga buyuk adibning go'zal xislatlari, u yaratgan o'chmas meros haqida ikki og'iz so'z yuritiladi.

Nihoyat muallif adibning har bir xislati, xulqi va o'zgacha qarashi, umuman hayotining jabhalariga alohida alohida to'xtala boshlaydi. Birinchi bo'lib, Abdulla Qahhorning haqiqatparvar, vijdonli, haq yo'lida bosh egmaydigan, boshlagan ishini oxirigacha olib boradigan metin irodasi va qaytmas shijoati hamda yuragidagi so'nmas olovi qalamga olingan. Ma'lumki, buyuk adib sho'ro tuzumi davrida, qahat ijod davrida qalam tebratgan. Va uning so'nmas jasoratiga yaqqol misol uning shu davrdagi partiyalardagi ishtirokida namoyon bo'ladi. Hikoya qilinishicha, o'tkir yozuvchi shunday yig'ilishlarning birida unga so'z berilganda o'sha davrning ijodiy muhitidagi og'riqli nuqtalarni shartta, qo'rqmasdan, bemalol va xotirjam tarzda aytadi. Kuchli tanqid qiladi, "adabiyotimizga chang solayotgan kimsalar bor, ular adabiyotimizning haqiqiy jallodlari" deya xitob qiladi. Yig'ilishga kelganlarning hammasi bundan hayratga tushadi. Sababi u davrlarda haqiqatni to'g'ridan-to'g'ri gapirish deyarli

mumkin emasdi. Ammo, bunga faqat Abdulla Qahhor jur'at qila olgan. U bu gaplaridan keyin boshida tayoq sinishini bilmagan deysizmi? Yo'q, aksincha u buni juda yaxshi bilgan, ammo, uning nazdida bu haqiqatdan ham hal qilinmasa bo'lmaydigan masala edi, shuningdek, u o'zbek adabiyotiga qattiq jon kuydirardi va kerak bo'lsa, adabiyotimizni qutqarish yo'lida har qanday azobga tayyor edi. U haqiqiy adabiyot fidoyisi edi. Ravshanki, bu yig'ilishdagilar ichini qizitib, o'sha jallodlar kimligi haqida so'raydilar, Abdulla Qahhor aytadi ham va aytishi bilan xuddi o'sha davrning barcha ijodkorlarning ichidagi dardi nihoyat yuziga chiqqanday xursand bo'ladi. Ammo, partiya yuqori a'zolari yozuvchidan o'z so'zlarini qaytarib olishini istaydi, lekin Qahhor buni inkor etib, o'z yo'lida qat'iy qoladi, garchi shu gapidan keyin unga hayfsan e'lon qilishsalar ham. Lekin u qoralagan ijodiy muhitni buzayotgan ig'vogar ham quruq qolmaydi. Oxiri u Yozuvchilar uyushmasidan haydalib ketadi va adabiy muhitga tahlika solayotganlarga ancha buncha barham beriladi.

"Agar yozuvchining axloq kodeksi tuziladigan bo'lsa, men halollik bilan shijoatni birinchi modda qilib qo'yar edim, chunki yozuvchining boshqa hamma xislatlari uning qay darajada halol, naqadar shijoatli zehniga bog'liqdir. San'at asarida yaxshini yaxshi deb odamlarga ibrat qilish, yomonni yomon deb odamlarni undan jirkantirish uchun shijoat kerak bo'lsa, shijoat halollikni talab qiladi" degan hikmatga to'la so'zlarni buyuk yozuvchi bejizga aytmagan, shuningdek u o'z so'zlariga sodiq holda umrining so'nggi nafasigacha mardonavor ijod qilgan, yashagan. Asarlarida ham o'z shaxsiyatiga xos jamiyatning og'riqli masalalariga tanqid va yumor jihatidan achchiq haqiqatni yashirgan. Kitobdagi "Ayol sha'ni" nomli maqolasida Nuriddin Ochilov bugungi o'zbek ayollarining tarbiyasi, yurish-turishi, madaniyati borasida chuqur tahlil olib borgan, achinarli holatlarni yuzaga chiqargan va bugungi o'zbek ayollariga o'rnak sifatida Abdulla Qahhor va uning ayoli Kibriyoxonimning umrguzaronliklarini namoyon etgan. Shu o'rinda Abdulla Qahorning oila munosabatlari haqidagi go'zal fikrlarini ham iqtibos keltirgan: "Er-xotin o'rtasida parda bo'lishi shart. Er-xotin mana shu parda ko'tarilmasligi uchun harakat qilishi kerak. Parda ko'tarildimi - bas, hayotga darz tushadi. Masalan o'z bolangizga ham ilk marotaba qo'l ko'tarishingiz qiyin. Bir shapaloq urdingizmi - tamom, ikkinchi marta qo'lingiz o'z-o'zidan ko'tarilaveradi. Oilada ham shundoq. Bir kuni "san-man"ga bordingizmi, ertasiga yoqalashish hech gap emas. Shuning uchun biz parda ko'tarilmasligi uchun harakat qilishimiz kerak". Ko'rinib turibdiki, oila munosabatlari farovonligi uchun ikki taraf birdek tirishishi lozim. Ikki ustun bir bo'lsagina bino mustahkam bo'ladi. Lekin bu farovonlik yo'lida zahmatkashlik va sabr hamda katta javobgarlik ham bor. Agar matonat bilan shunday qiyinchiliklarga dosh bera olinsagina oila tinchlikda va farog'atda umr ko'radi. Buyuk yozuvchi aynan shuni etkazmoqchi bo'lgan.

Buyuk adibning mard, haqgo'y va teran fikrli xarakterini, qopib emas topib gapirishini, har qanday bosim ostida ham o'zini yo'qotmay dadil va xotirjam tutishini kitobning "Tesha tegmagan gaplar" nomli qismida ko'rishimiz mumkin. Bu erda ijodkorning ayoli, shogirdlari bilan suhbatlaridan qisqa parchalar keltirilgan. Guvohi bo'lishimiz mumkinki, Abdulla Qahhor kundalik muloqotda ham so'z ustasi bo'lgan, aytgan har bir gapi atrofdagilarni o'yga cho'ktirmasdan qo'ymagan. Xuddiki, uning xarakteri va ijodi bir-biriga aql bovar qilmas tarzda uyg'unlashib ketgandek. Uning gap-so'zlaridan qat'iylik, o'z-o'ziga to'g'rilik, samimiylik, erkinlik, kamtarinlik va shu o'rinda mehribonlik doimo taralib turgan. Asarda ko'p takrorlanishicha u huda-behuda so'zlayvermagan, faqatgina kezi kelganda, shunda ham so'zlarni chertib-chertib ta'sirli so'zlagan, naq nuqtasiga urib gapirgan.

Abdulla Qahhor nafaqat buyuk ijodkor, ustoz shu bilan bir qatorda shijoatli o'quvchi ham bo'lgan. U ko'pchilik ijodkorlarning, o'z zamondoshlarining ijodini hamisha kuzatib, chuqur tahlil etgan, o'rgangan. U xususan, "O'tmishdan ertaklar" nomli asarini yozish vaqtida rus adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Anton Chexovning asarlari yaqqol ilhom bo'lganini tasdiqlaydi. Umuman ushbu asar o'tmishdagi baxtiyor kunlar emas, balki, xalqimizning o'tmishdagi azob-uqubat va mashaqqatlariga tashlangan nazar haqida edi. Adib ta'birida u Anton Chexovning "ko'zoynagi" orqali xalqimizning ayanchli o'tmishiga razm solgan. Ana shunday qilib, Abdulla Qahhor baxtdan benasib bo'lgan bolaligining suratini "chizadi". Shunga qaramay, bu asar kitobxonlar e'tiroziga sabab bo'lib, ortiqcha mubolag'a ishlatilganligi haqida shikoyat qiladi. Oqibatda Abdulla Qahhor uzoq muddat davomida ta'nadashnomlarga duchor bo'ladi. Ammo, yillar o'tib ham ushbu asar kitobxonlar qo'lidan tushmay kelmoqda. Negaki, asar o'zining achchiq-shirin hissiyotlarga boy voqealari, kuchli obrazlari va yoqin tasviri bilan boyitilgan. Asarni o'qigan yoshlar xalqimizning ayanchli o'tmishidan, mashaqqatli kunlaridan xulosa chiqarishga, tariximizni va o'zligimizni chuqurroq anglashga chorlaydi.

Yozuvchining asarlardagi obrazlar va personajlar ham o'ta nozik va mahorat bilan tasvirlangan, tanlangan bo'ladi. Asarlaridagi qahramonlar ham o'zi kabi haqiqatga, g'ayratga, rivojlanishga intiladi. Xususan, uning "Sinchalak" asaridagi Saida obrazi bugungi yosh avlod uchun yaxshigina o'rnak bo'la oladi. Saida obrazi matonatli, haqparvar, o'zi yoki boshliqlar uchun emas, ko'proq xalq manfaati uchun xizmat qiladigan insofli va ma'suliyatli xodimlardan. U o'z fikrini erkin bildira oladi, lavozimi, boyligidan ayrilishdan emas, vijdonidan ayrilishdan qo'rqadi. Doimo, izlanishda bo'ladi. Ammo, uning bu xislatlari "kursi egalari"ga xush kelmaydi. U berayotgan taklifni, qilayotgan qarorlarini inkor etib, o'zini sindirmoqchi bo'ladi. Boshliq o'z besavod tanishini ma'lum ish o'rniga qo'yimoqchi bo'ladi. Ammo, Saida bunga ko'z yumib ketmay, qilayotgan qarorlariga kuchli asoslar keltirib, boshliqqa qarshi boradi. Boshliq harchand qopib, baqirib, uni qo'rqitishga urinsa ham, asossiz balandparvoz

gaplar taxlasa ham u o'z maqsadiga erisha olmaydi. Negaki, Saida har gapini mo'ljalga aniq tekkazib gapiradi, o'zini erkin va qat'iyatli tutadi. Shunday qilib, Saidani dag'-dag'a va po'pisa bilan sindirmoqchi bo'lgan xo'jayin yakunda o'zi taslim bo'ladi. Xo'jayin tom ma'noda hech nima qila olmaydi, sababi u haqiqatni achchiqligini biladi va shunda ham baribir yolg'on bilan maqsadiga etmoqchi bo'ladi. Bu asar ayni hozrigi loqaydlik davri uchun mos. Bizga shunday yonib-kuyadigan, haq uchun tirisha oladigan, mard, matonatli yosh avlod kerak. Saida obrazi nafaqat yoshlar balki kattalar uchun ham o'z haqiqati, xalqi uchun kurashishiga, mardonavor hayot kechirishi, har qadamda xushyor va sergak bo'lishi, tinmay harakat qilishiga turtki bo'ladi.

Yozuvchi shu bilan birga oqko'ngil va bag'rikeng inson, mehri daryo ustoz ham edi. U adabiyotga endi qanot yozayotgan, ijodining ilk uchqunlari ko'rinayotgan yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlar, ijodidan bahramand bo'lar, mehmon qilar, xuddi yaqin do'stidek munosabatda bo'lar edi. Shu bilan birga ularning xato va kamchiliklarini sezib qolsa, darhol bildirar va shogirdini o'z ustida ko'proq ishlashi uchun tanbeh berar, rivojlanishga chorlar edi. Abdulla Qahhor hech qachon uyiga mehmon bo'lib kelgan odamga eshigini yopmagan. Aksincha, ochiq chehra va oliyjanoblik qilib, ayoli Kibriyo opa bilan kutib olganlar. Negaki, adib uyiga kelgan har bir ijodkor bilan miriqib suhbat qurar va mehmon ham uning uyiga tashrifidan ko'p narsalarni o'rganib, fikr almashib ketardi.

Adib naqadar zabardast ijodkor bo'lmasa-da, baribir o'z tabiatiga mos kamtarin va sokin edi. Bunga misolni yaqqol uning qadrdon shogirdi u haqida yubileyiga bag'ishlab kino suratga olmoqchi bo'lganidagi javobida ko'rishimiz mumkin. U shogirdining taklifiga boshqa birov javob bergandek "ha" deb emas balki hayrat bilan "Axir men artist emasman-ku" deydi va o'sha kamtarona munosabati bilan o'zi haqidagi kinoni suratga olishga rozilik bildiradi.

Adib qanchalik millatparvar, haqgo'y, jonkuyar, fidoyi va shijoatli ijodkor bo'lmasin, ba'zi bir qo'shtirnoq ichidagi tashkilotlar, g'araz niyatli insonlar uni obro'sini tushirmoqchi bo'lishadi. U chinakam va qattiq mehnatli ijod yo'lida ko'p tanqidlar va nohaqliklarga uchraydi. Uni sindirishmoqchi bo'lib, ko'pchilik ichi qora odamlar asarlarini asossiz tanqid qiladi, bu nafaqat o'ziga balki shogirdlari obro'siga, ijodiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Va hatto uning "Yoshlar bilan suhbat" nomli asarini birgina dilidagi haq so'zini aytgani uchun yoqishgacha boradilar. Adibning shogirdlari bu shum xabardan so'ng undan hol-ahvol so'rashadi. Adib bunga yurak siqish befoyda ekanini tushunib, bunga indamaydi va o'sha "kimsa"larga Xudodan insof so'raydi. Xayriyatki, ilk nashrni qo'lga kiritgan kitobxonlar bor edi. Adib shuni o'ziga mamnun bo'ladi. Lekin, uning jimligi ortida katta qayg'u va alam yotadi, begunoh kitoblarining kitobxon qo'lga etib bormaganidan qattiq afsus chekadi. U o'sha razil insonlar va ularning nomaqbul ishlaridan ham o'limdan ham sira qo'rqmaydi. Ularning asl maqsadi adibdan qutulish ekanligini uning o'zi yaxshi tushunadi, shunda ham u baribir

haqiqat bilan yuzma-yuz borishdan chekinmaydi. Shunday adibga qilingan nohaqliklarga qaramay, mana oradan yillar o'tsa ham adibning mazkur asaridagi dolzarblik hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Adib xuddi kelajak nazari bilan betakror asarlar yaratardiki, ular hozirgi yosh avlod uchun dunyoqarashini kengaytirishida, ma'nani yuksalishida juda zarurdir. Uning siymosi bugun yangi kelajak avlod uchun beqiyos o'ringa ega bo'ldi, uning adabiyotga qo'shgan yirik hissasi uchun "Abdulla Qahhor stipendiyasi" joriy qilindi, asarlari yoshlar orasida keng targ'ibot qilinib, sahnalashtirildi. Shubhasizki, u yaratgan o'chmas meros va uning pok ruhi adabiyotga oshno qalblarda yashashdan to'xtamaydi.

Abdulla Qahhorning baxti ham o'ziga mos betakror bo'ldi. U birinchi marta Kibriyo opani ko'rganidayoq uni yoqtirib qoldi. Kibriyo opa ham uning ko'nglidagidek insofli, oqko'ngil, mehribon, yoshlikdan bilim olamiga sho'ng'igan, ota tarbiyasini ko'rgan haqiqiy iffatli, mehnatkash, tinim bilmas, ijodkor ayol edi. Tasodifiy uchrashuv va ikki betakror o'xshash dunyoqarashlar, o'xshash go'zal qalb egalarining birlashuvi chiroyli umrguzaronlikka etakladi. Kibriyo opaning ko'magi, daldasi Abdulla Qahhorning ijodining yanada jo'sh urishiga, og'ir damlarida ilhom bo'ldi.

Umuman olganda, adib san'atning zukko bilimdoni edi. U ko'ziga ko'ringan har bir ijodkor bilan qiziqmay qolmasdi, ijodni qaysi janri ekanligini farqi yo'q, Qahhor har ijod sohasini yaxshi tushunar, o'rganishdan qaytmasdi. U nafaqat shogirdlar balki zamondoshlari orasida ham o'zining fidokorona va qiziqqon go'zal shaxsiyati tufayli o'zgacha obro' va e'tibor qozongan edi. Uning xarakteri va mehnati zamondoshlarini ham lol qoldirmay qo'ymasdi.

Abdulla Qahhor umrining oxirigacha shunday o'ziga sodiq va mardonavor bo'lib qoldi. Hatto o'lim to'shagida ham o'zining qo'rqmas va jasur tabiatini, so'nmas irodasini yo'qotmadi. Dardga chalinganida butun o'zbek adabiyoti ahli uning sog'ayishini umid qilib, tepasida parvona bo'ldilar. Ammo, yana o'sha g'alamuz kimsalar uning tuzalishini istamadilar, sarson-u ovora qilib, uni davolashga Moskvaga olib keldilar. Bu erda ham u azob cheksa-chekdiki, lekin davo topa olmadi. Kasallik avijgan sari, adib umri tugab borayotganini bilsa-da, u talvasaga tushishga emas, ichidagi borini, vasiyatlarini aytishga, shogirdlariga so'nggi so'zlarini etkazishga ulgurishga va albatta o'z yurtiga qaytib so'nggi bor ona diydor bag'rida nafas olishni qattiq istar edi. Ming afsuski bu unga nasib etmadi. Yozuvchi og'ir dard bilan so'nggi nafasigacha kurashib, jasorat bilan jon berdi. U ketganda butun adabiyot yig'ladi, azob-u izzat chekdi, g'amga botdi. Razil kimsalar esa bundan xursand bo'lganini ko'rsatib, adib o'limidan so'ng, birdaniga ilmiy unvonlari ko'tarildi. Biroq, undan keyin qolgan buyuk mehnat, katta maktab, kitobxon qalbidan egallagan alohida joy hech qachon so'nmadi. Asarlari qayta-qayta nashrlardan o'tdi. U adabiyot ahlida afsonaviy ijodkor sifatida alohida o'rin egalladi. Zamondoshlari-yu, shogirdlari qalbida o'lmas xotiralar va o'tkir taassurotlarni qoldirib ketdi. Nafaqat ijodkor sifatida so'z ustaligi, yorqin

tasvirlari va go‘zal personajlari, Qahhorona uslubi bilan balki inson sifatida ham u o‘z davrida bo‘lakcha qadrlandi. Saxovatpeshaligi, mehribonligi, mehnatkashligi, qiziqqonligi, shartakiligi, siqqligi, kamtarin va haqparvarligi-yu oqko‘ngilligi uning tengsiz shaxsiyatini yaratdi. U o‘zining shaxsiyati va ijodi go‘zal uyg‘unlashganidan millionlar yuragidan joy oldi. Buni butun adabiyot ahli u haqida keltirgan ta’riflarida yanada oydinroq ko‘rish mumkin. U xotiralarda ham hayotiy, ham ijodiy tomondan haqiqiy san’atni ko‘rsata olgan inson bo‘lib qoldi. Oradan ming yillar o‘tsa ham adabiyot olamida Abdulla Qahhorning o‘chmas siymosi hamisha porlab, mangu yashashda davom etadi...

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, Qahhor obrazi va asarlari har bir inson uchun yuksak ibratdir. Afsonaviy ijodkor bizga hayotda doimo olg‘a qadam tashlashga, metin irodali bo‘lishga, chuqur tafakkurga ega bo‘lishga o‘rgatadi. Ayniqsa, undagi shijoat o‘sib kelayotgan navqiron yosh avlodga so‘zga sadoqatli adabiyotning o‘chmas siymosi Abdulla Qahhor shaxsiyati, uning asarlarini keng targ‘b etish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan raqamli dunyoda Abdulla Qahhor asarlari bir zumga to‘xtab, o‘zlik, jamiyat haqida chuqur fikr yuritishga chorlaydi. *Uning o‘tkir qarashlari bilan yo‘g‘rilgan asarlari-yu, muloqotdagi gap-so‘zlari kitobxonni ibrat olishga, u kabi shijoatli va mehnatkash bo‘lishga chorlaydi. Bu faqatgina adabiyot yoki san‘at sohasidagi g‘ayratlilik, bunyodkorlik bilan bog‘liq emas. "Ehtiom" asari bizga inson qanday sohada bo‘lmasin yurakdan mehnat qilishi, qiziqqonligi, ishonchi va umidini doimo quyoshdek yondirib, haqiqat yo‘lida sinmay, irodali bo‘lishiga, ko‘zlagan maqsadi tomon dadil va mahkam qadamlar bosishiga chaqiradi. Asarda nafaqat bu insoniy yuksak xislatlar, balki tarbiya va ma‘rifat jihatdan alohida diqqatga molik masalalar ilgari surilgan. Bu o‘quvchi qalibida ham ma‘naviy, ham umuman, insoniy jihatdan rivojlanishni uyg‘otadi.* Taklif o‘rnida, adib hayoti va ijodini yanada keng targ‘ibot qilish, uning o‘gitlarini yoshlikdanoq bolalar ongiga singdirish, barcha ta‘lim muassasalarida unga bag‘ishlab turli xil tadbirlar va qiziqarli tadbirlar hamda katta mukofotli tanlovlar tashkil etish mumkin. Bu esa o‘z o‘rnida xalqimiz orasida millatparvarlik, g‘ayrat, mehnatkashlik, hurmat-izzat, go‘zal tarbiya kabi fazilatlarini rivojlantirishda va yuqorida urg‘u berilganidek yoshlarni Yangi O‘zbekistonni yorqin kelajagini qurishida komil va etuk inson bo‘lib etishishida alohida e‘tiborga sazovor.

FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR

1. Ochilov N. Ehtiom. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021. – 320 b.
2. Shavat Mirziyoyev. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. 161, 268, 201-betlar.
3. A. Қаҳҳор. Ҳақ сўзнинг кучи: Мақолалар. Сухбатлар. Қайдлар. 5-жилд. – Тошкент: “Адабиёт ва санъат”, 1989. – 272 б.

4. A. Qahhor. Ayb kimda. Hikoyalar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 160 b.

